

MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONDA NODAVLAT RADIOSTANSIYALARING TASHKIL ETILISH TARIXI

Yusupov Izzat Sultanovich, Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktorning birinchi o'rinnbosari, Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

HISTORY OF THE ORGANIZATION OF NON-STATE RADIO STATIONS IN UZBEKISTAN DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE

Yusupov Izzat Sultanovich, Urgench branch of the Tashkent Medical Academy, First Deputy Director for work with youth and spiritual and educational work, Doctor of Philosophy (PhD) in historical sciences, Associate Professor

ИСТОРИЯ ОРГАНИЗАЦИИ НЕГОСУДАРСТВЕННЫХ РАДИОСТАНЦИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ

Юсупов Иzzат Султанович, первый заместитель директора по работе с молодежью и духовно-просветительской работе Ургенчского филиала Ташкентской медицинской академии, доктор философии (PhD) по историческим наукам, доцент

Annotatsiya: Mazkur maqolada mamlakatimizda mustaqillik yillarida nodavlat radiostansiylarining tashkil qilinishi hamda bosqichma-bosqich soni ortib borishi bilan bir qatorda qamrov hududining kengayishi hamda radioaloqa tizimi orqali berilayotgan kundalik dasturlari, efirga uzatish soatlari, teledastur mavzularining rang-barangligi, dolzarbligini kuchaytirish borasida olib borilgan ishlar xronologik jihatdan yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Grand, Sezam, O'zbegim taronasi, Hamroh, Oriat dono, Oriat FM, Poytaxt, Zamin FM, Navro 'z, A'lo FM, Vodiy sadosi, Birinchi Sharqona onlayn radiosи.

Abstract: This article chronologically covers the establishment and gradual increase in the number of non-state radio stations in our country during the years of independence, as well as the expansion of the coverage area and the work carried out to increase the diversity and relevance of daily programs, broadcast hours, and TV program topics broadcast through the radio communication system.

Keywords: Grand, Sezam, Uzbegim taronasi, Hamroh, Oriat dono, Oriat FM, Poytaxt, Zamin FM, Navro 'z, A'lo FM, Vodiy sadosi, Birinchi Sharqona online radio.

Аннотация: В статье дается хронологический обзор работ, проведенных в нашей стране за годы независимости, в том числе по созданию негосударственных радиостанций и постепенному увеличению их количества, а также по расширению зон покрытия и усилению ежедневных программ, часов вещания, разнообразия и актуальности тематики телепрограмм, транслируемых через систему радиосвязи.

Ключевые слова: Гранд, Сезам, Узбегим Таронаси, Хамро, Ориат Доно, Ориат FM, Пойтахт, Замин FM, Навруз, Аъло FM, Эхо долины, Первое восточное онлайн-радио.



<https://orcid.org/0009-0005-3562-9620>
e-mail:
izzatttauf@gmail.com

KIRISH. Mamlakatimizda mustaqillik yillarida nodavlat radio aloqa tizimi sohasida muhim o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Sohaga doir yangi infrazilmalar yaratildi. Bunday yangilanishlar radio aloqa tizimining yangi bosqichga ko‘tarilishini va rivojlanish jarayonlarini, aholining ijtimoiy-madaniy hayotidagi tutgan o‘rnini alohida mavzu doirasida tadqiq etishni taqozo etmoqda. Nodavlat radio aloqa vositalarining jadal rivojlanishi va yangi turlarining ixtiro qilinishi mamlakatimizda sodir bo‘layotgan ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy jarayonlarga o‘zining ta’sirini o‘tkazmoqda. Radio aloqasi orqali xabarlarini tezkor yetkazish, davlat va jamiyat hayotini demokratlashtirish, fuqarolarda yuksak huquqiy madaniyatni shakllantirish turli xalqlar o‘rtasidagi hamjihatlikni ta’minlashdagi o‘rnini alohida mavzu doirasida tadqiq etishni taqozo etmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD.

Mustaqillik yillarida mavzu doirasida quyidagi tadqiqotchilar: O’.O’tayev [1:272], M.Alimardanov [2:155], A.Mo’minov [3:163], M.Masharipov [4:84] kitoblarida radioaloqa sohasiga oid ma’lumotlar aks ettirilgan bo‘lsa-da, yetarli o‘rin ajratilmagan. O‘zbekistonda radioaloqa, radioeshittirishning paydo bo‘lishi va taraqqiyoti tarixiga oid umumiy ma’lumotlar V.Z.Zuparov, O.A.Xolmatov [5:64], M.Ro‘ziyev, X.Jo‘rayev[6:113], A.Nurmatov, F.Mo’minov [7:173], T.Axmedov[8:159], M.Asadullayev[9:584], M.Xudoyqulov[10:286], S.Sodiqov[11:120], A.Karimov, A.Andiqulov, X.Do’strmuhammedov, I.Qo‘ziyeva, L.Arutyunova [12:288] A.Hadjayev, F.Mahmudov, M.Safarov, N.Hikmatullayev, X.Nuriddinov, A.Halimov, P.Allaberganova, O.Shomurodov, A.Madrahimov [13:264], Sh.Xaitov[14:414] risola va kitoblarida ham qisman ma’lumotlar keltirilgan. O‘zbekistonda nashr qilingan monografiya va yoqlangan dissertatsiya ishlari hamda davlat arxivlari fondlarini ko‘zdan kechirish jarayonida, radioaloqa sohasiga oid ma’lumotlar juda kam o‘rganilganligi va tadqiqotchilar nazaridan chetda qolib ketayotganini ta’kidlab o‘tish lozim.

MUHOKAMA. O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng ommaviy axborot vositalari bo‘lmish radioeshittirish va teleko‘rsatuvlarda bevosita mamlakatimizning mustaqilligiga bag‘ishlangan, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy-ma’rifiy ahamiyatga ega bo‘lgan mavzularga keng o‘rin ajratila

boshlandi. Shu bilan bir qatorda respublikamiz haqidagi muhim yangilik va axborotlar ham mamlakatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy axborot agentliklari vakillari va muxbirlari tomonidan o‘sha mamlakatlar axborot vositalari uchun bevosita yetkazib berilgan. Axborot almashinuvi, dunyo voqealaridan xabardorlik, yoki aksincha, dunyo sahnasisiga chiqish, o‘zini namoyon qilishga imkoniyat yaratib berilgan[15: 255].

O‘tgan davr mobaynida barcha sohalar kabi nodavlat radioaloqa sohasida ham tub islohotlar boshlandi. 1998-yilning 16-yanvarida Toshkent shahrida “Grand” deb atalgan birinchi xususiy radiostansiya tashkil qilindi. Keyingi radiostansiya “Mening shahrim” o‘z faoliyatini boshladi va boshqa to‘lqinda Moskvadan “Yevropa plyus” radiosining eshittirishlari olib tarqatiladigan bo‘ldi. Biroq “Mening shahrim” radiosи raqobatga dosh berolmay tezda o‘z faoliyatini to‘xtatgan. Keyinchalik “Sezam” radiosи o‘z faoliyatini boshladi. Ushbu radiodan keyin “O‘zbegin taronasi”, “Hamroh”, “Oriat dono”, “Oriat FM”, “Poytaxt”, “Zamin FM”, “Navro‘z”, “A’lo FM” degan xususiy radiostansiylar ishga tushdi. O‘sma vaqtida Toshkent shahri va uning atrofida 14 ta xususiy radiostansiya tinglovchilar uchun xizmat qilgan[16:77].

2001-yilning avgust oyida “Vodiy sadosi” FM radiostansiyasi Samarqand va Samarqand viloyati, 2001-yil noyabrda Navoiy va Buxoro viloyati, 2002-yil aprelda Surxondaryo viloyati, 2003-yilda Qoraqalpog‘istonda va Jizzax viloyatida radioeshittirish sifatini oshirish maqsadida Toshkent-Samarqand, Toshkent-Qo‘qon avtomobil yo‘li (Qamchiq dovoni) hududida translyatsiyani tashkil etish uchun Angren (Nurobod), Qo‘qon, Zarafshon va Uchquduq avtomobil yo‘lida radiostansiyani ishonchli qabul qilishni ta’minlovchi radioeshittirish uskunalari o‘rnatildi hamda O‘zbekiston Respublikasi hududida radioeshittirish tarmog‘ining qurilishi ishlari yakunlandi[17:85].

Mamlakatimizda onlayn radio ham zamona-viy radiolarning internetdagи ko‘rinishi sifatida yuzaga keldi. Birinchi “Sharqona onlayn” radiosи 2007-yil 9-dekabrda “Global media grupp” kompaniyasi tomonidan yaratilib ish boshladi. 2009-yili Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Kamolot yoshlar ijtimoiy harakati hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Mahalla jamg‘ar-

masi qo'llab-quvvatlashi bilan onlays radiokanal "Nukus FM" o'z faoliyatini boshladi. Radio musiqiy-informatsion formatdagi eshittirish-larni tayyorlaydi. Dasturlar auditoriyaga 24 soat davomida uzatilgan. Ularning 60 foizi musiqiy eshittirishlardan iborat. Radio to'lqinlari Nukus, Taxiatosh, Xo'jayli, Kegayli tumanlariga uzatilgan [18:231]. FM radiostansiyalar va Nodavlat radio-stansiyalari tarmog'i – NRT ijodkorlari tomonidan tayyorlangan axborot bloklarining soni 20 mingdan oshib, xabarlar soni qariyb 100000tani tashkil etgan[19:5].

2017-yil 26-maydan boshlab "S-IQBOL" xususiy televideenisiga qarashli bo'lgan radiokanal ham ishga tushirilgan bo'lib, eshittirishlari bilan tinglovchilar qalbidan chuqr joy egallab kelmoqda. "Xabarlar" informatsion dasturi, "Vatan madhi", "Hikmatlar bo'stoni", "Men yurtimni sevaman", "Shukrona" radioloyihalari orqali tinglovchilarga yangilik ulashishi uchun ijodkorlar, radio-boshlovchilar o'z ustida tinmay izlanish olib bormoqdalar. Shuningdek, O'zEOAVMA Axborot loyihasi doirasida tayyorlanadigan "Zamon" informatsion dasturi, "Mening yurtim" telekanalining "Markaziy studiya" dasturlari bilan ham hamkorlik yo'lga qo'yilgan bo'lib, ularda 100dan ortiq ijtimoiy ahamiyatga molik lavhalar efirga uzatilgan. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasi hamda Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan 5ta muhim tashabbus ijrosini ta'minlash jarayonlari doimiy ravishda teleradiostudiya dasturlari, xusan, "Xabarlar" informatsion dasturi orqali yoritib borilmoqda[20:2].

Buxoro viloyati nodavlat radiosи FM-103,9 to'lqinida har kuni 2 soat hajmda o'zbek, rus, tojik tillarida eshittirishlarni efirga uzatmoqda. 2018-yilda Buxoro viloyati radiosidagi boshqaruv pulti zamona-viy Behringer miksher pulti bilan almashtirildi. Shuningdek, 2ta Intel Pentium G3240 kompyuteri hamda 2ta Dreyer Gromkogovoriteli va mikrofonlar o'rnatilib, montaj xonasi to'liq mukammal ta'mirlandi[21:3]. 2017-yili Qashqadaryo viloyatida nodavlat FM radio qamrovini kengaytirish maqsadida Palandara RTS, Chiroqchi tumanidagi Katta-qishloq RTS, Taxtaqoracha RTSda radiouzatkichlar modernizatsiya qilinib ishga tushirildi. Shuningdek, Dehqonobod tumanidagi Terakli RTSga TF(S)-10 radiouzatkichi o'rnatildi va 103,4 MGs chastotada efirga uzatilishi natijasida viloyat hududining barcha

qismi "O'zbekiston" FM radioto'lqinlari bilan to'liq qamrab olindi[22:7].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Butun mamlakatimiz qatori O'zbekiston ommaviy axborot vositalari ham mustaqillik yillarida katta rivojlanish yo'lini bosib o'tganini barchamiz yaxshi bilamiz va bunday yutuqlar bilan haqli ravishda faxrlanamiz. Hozirgi kunda respublikamizda 1500 dan ziyod ommaviy axborot vositasi faoliyat ko'rsatmoqda. Birgina O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi tarkibidagi telekanallarning bir sutka davomidagi umumiy efir vaqt 616 soatni tashkil etmoqda. Holbuki, mustaqillikdan oldin bu raqam bor-yo'g'i 48 soatga teng edi. E'tiborga molik jihat shundaki, ommaviy axborot vositalarining tarkibi ham tubdan o'zgarib bormoqda. Buni yurtimizdagи barcha telekanallarning qariyb 53 foizi, radiokanallarning esa 85 foizi nodavlat ommaviy axborot vositalari ekani ham tasdiqlaydi[23:498]. Eng muhimi, nodavlat telekanallar axborot maydonida o'zaro raqobat muhitining kuchayishiga ta'sir ko'rsatdi".

O'zbekiston Respublikasi Axborot kommunikatsiyalarni rivojlantirish vazirligi tashabbusi bilan 2022-yil yanvar oyidan boshlab "RRTM" DUK tomonidan Toshkent teleminorasida Toshkent shahri aholisi uchun DAB+ standartida raqamli radiokanal lar uzatishi ta'minlandi. O'rta Osiyo davlatlari orasida birinchilardan bo'lib DAB+ (Digital Audio Broadcasting) standartdagi radioeshittirishni test rejimida efirga uzatish yo'lga qo'yildi. DAB+ raqamli radioeshittirish bilan parallel ravishda FM diapazonida ham radiokanallar uzatib kelinmoqda. DAB+ standarti orqali bitta uzatkichdan 16 ta radiokanallar ("O'zbekiston", "Yoshlar", "Mahalla", "O'zbekiston-24", "Oriat Dono", "Oriat FM", "Vodiy sadosi", "Poytaxt (uzb)", "Poytaxt (rus)", "Grand", "Yoshlar ovozi", "Maksima", "Avtoradio Hamroh", "Navro'z", "Nostalgiya", "O'zbegim taronasi") 199,360 MHz chastotada test rejimida efirga uzatilishi ta'minlangan[24:1]. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ommaviy axborot vositalari xodimlari haqida shunday degandi: "Doimo yangilik izlab, yangilikka intilib yashaydigan, jamiyatda yuz berayotgan muhim o'zgarishlar, ustuvor g'oya va tashabbuslarning ma'no-mohiyatini odamlarga tezkorlik va xolislik bilan yetkazadigan, hayotning qaynoq nuqtalariga dadil kirib boradigan matbuot xodimlari mamlakatimiz taraqqiyotiga munosib hissa

qo'shamoqda. Bugungi kunda OAV tom ma'noda "to'rtinchi hokimiyatga" aylanib bormoqda [25:118]" deya ta'kidlagandi.

NATIJALAR. Maqlolada ko'rsatilgan yillarda mamlakatimizda nodavlat radioaloqa sohasida katta o'zgarishlar amalga oshirildi. Barcha mamlakatlar qatori respublikamizda ham ko'plab xususiy radioaloqa kanallar paydo bo'ldi. Radio uskunasi ning ham yangidan-yangi turlari kashf etilib, yanada takomillashib bordi. Radioni bugungi kunda televizor, telefon, transport, mobil telefon va boshqa qurilmalar orqali ham eshitishimiz mumkin. O'tgan davr mobaynida davlat radiostansiyalaridan tashqari FM radiostansiyalaridan eshittirishlar ham kirib keldi.

XULOSA. Mustaqillik yillarda mamlakatimizda nodavlat radio aloqa sohasiga yangi texnika va texnologiyalarning bosqichma-bosqich kirib kelishi ijodiy imkoniyatlarning kengayishiga, mazmunan chuqur, shaklan mukammal, tomoshabinbop ko'rsatuv-eshittirishlarning, yangi tok-shou va viktoria hamda teleo'yinlarning joriy etilishiga zamin yaratdi.

O'tgan davr mobaynida mamlakatimizning barcha hududlarida xususiy radiokanallar faoliyatini amalga oshirish uchun keng sharoit yaratilgan bo'lishiga qaramay barcha hududlarda ham soha rivoji birdek kechmadi. Nodavlat radio aloqa vositalari O'zbekistonning axborot makonida muhim o'rinnegallab, jamiyatda sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish va ijtimoiy masalalarni yoritishda kuchli platformaga aylanib bormoqda. Yurtimizda media sohasidagi islohotlar davom etar ekan, nodavlat OAVlar ham sifat, mazmun va texnologik taraqqiyot jihatidan yuksalishda davom etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'tayev O'. Televedeniye davr ko'zgusi. — Toshkent: O'zbekiston, 2010. – 272 b.
2. Alimardanov M. O'chmas sharaf. — Toshkent: Dono MCHJ, 2017. – 155 b.
3. Mo'minov A. O'zbekiston axborotlashgan jamiyat sari. Toshkent: Turon zamin ziyo, 2013. – 163 b.
4. Masharipov, M. Oynayi jahon. — Urganch: Xorazm, 2012. – 84 b.
5. Karimov A. O'zbekistonda televdeniye. — Toshkent: O'zKPMK, 1964. – 64 b.
6. V.Z.Zuparov, O.A.Xolmatov. Radioaloqa, radioeshittirish va televdeniye — Toshkent: G'afur G'ulom, 2007. – 113 b;
7. Ro'ziyev, M., Jo'rayeva X. Telejurnalistga tavsiyalar. — Toshkent: Sharq, 2013. – 173 b.
8. Nurmatov A., Mo'minov F. Jahon jurnalistikasi tarixi. Toshkent.: Fan va texnologiya, 2008. 328 b.
9. Axmedov T. O'zbekistonda televideniyening rivojlanish jarayoni (1991-2016 y.) — Toshkent: Qamar –media, 2021. – 159 b.
10. Asadullayev M. Televideniying nazariy va amaliy asoslari: O'zTV 65 yoshda. — Toshkent: Mumtoz so'z, 2021. – 584 b.
11. Xudoqulov M. Jurnalista va publitsistika. — Toshkent: Tafakkur, 2010. – 286 b.
12. Sodiqov S. Radiojurnalista asoslari audiovizual jurnalista. — Toshkent: Mumtoz, 2010. – 120 b.
13. Karimov A., Andiqulov A., Do'stmuhammedov X., Qo'ziyeva I., Arutyunova L. O'zbekiston ommaviy axborot vositalari jurnalislari. — Toshkent, 2003. – 288 b.
14. Hadjayev A., Mahmudov F., Safarov M., Hikmatullayev N., Nuriddinov X., Halimov A., Hayitov Sh., Shomurodov O., Madrahimov A. O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi: Zamon bilan hamqadam. — Toshkent: Dizayn-Print, 2022. – 264 b.
15. Jo'rayev N. O'zbekiston tarixi: (Milliy istiqlol davri) 3-kitob. Toshkent.: Tafakkur, 2011.B. 255.
16. Sodiqov S. Radiojurnalista asoslari audiovizual jurnalista. — Toshkent: Mumtoz, 2010. – B.77.
17. Yusupov I. O'zbekistonda aloqa tizimining taraqqiyoti tarixi (Xorazm viloyati misolida). — Buxoro: Durdona, 2022. – B.85.
18. Qosimova N. Onlayn jurnalista Toshkent, 2019. – B.231.
19. Abduxoliquov F. Intilganga tole yor. Toshkent, 2011. – B.4-5.
20. S-Iqbol televdeniyesi ma'lumotnomasi... – B.2.
21. Buxoro viloyat teleradiokompaniyasining 16.07.2021.№1/190-sonli ma'lumotnomasi – B.3.
22. Shodmonov A. Zamon bilan hamnafas. // Xabar gazetasi, 2021, 1-oktabr, 39 (1513). – B.7.
23. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild.–T.: O'zbekiston, 2017. – B.497-498.
24. www.oyina.uz 18.01.2022.
25. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiysi. -Toshkent, O'zbekiston, 2021. – B.118.